

INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA IQTIDORLI O'QUVCHILAR IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI

NamDU doktoranti D.Z. Jabbarova

Annotatsiya. Ushbu maqolada individual yondashuv asosida iqtidorli o'quvchilar ijodkorligini rivojlantirish , o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish va boshqarish ta'limning ijtimoiy, pedagogik maqsadlarga tayangan holda pedagogik jarayonni aks ettiruvchi umumiyl kelajak strategiyasi ekanligini hususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik jarayon, individual yondashuv, ijodiy fikrlash, texnologiyalari, usullari, vositalari, tamoyil, ijodiy faoliyat, didaktika, metodik qo'llanma.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСТВА ОДАРЕННЫХ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ПОДХОДА

Аннотация. В данной статье рассматривается , что развитие творчества одаренных учащихся на основе индивидуального подхода, развитие и управление творческой деятельностью учащихся является общей стратегией будущего образования, отражающей педагогический процесс с опорой на социально-педагогические цели.

Ключевые слова: педагогический процесс, индивидуальный подход, творческое мышление, технологии, методы, средства, принцип, творческая деятельность, дидактика, методическое пособие.

PEDAGOGICAL FACTORS FOR THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY OF GIFTED STUDENTS BASED ON AN INDIVIDUAL APPROACH

Annotation. This article reflects on the fact that the development of creativity of gifted students , the development and management of creative activity of students

on the basis of an individual approach is a general future strategy of education, reflecting the pedagogical process with reference to social, pedagogical goals.

Keywords: pedagogical process, individual approach, creative thinking, technologies, methods, tools, principle, creative activity, didactics, methodological manual.

Yangi O‘zbekistonda ta’lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqishdagi islohotlar mакtab ta’limidan boshlab o‘quvchilarning fan asoslari bo‘yicha zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirishga ehtiyojini, asosiy milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat ko‘nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatini rivojlantirishga zarur shart-sharoitlarni yaratibgina qolmasdan, o‘quvchilari ijodiy faoliyatini tashkil etishning samarali pedagogik yondashuvlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Maktab o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish va boshqarish muammosi tashkiliy tizim bo‘lib, o‘ziga xos qator sifatlarga ega: eng avvalo, ixtisoslashgan, ijod maktablari ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini tizimli boshqarish, didaktika va xususiy metodika fanlari sohasida o‘tkaziladigan tadqiqotlar bilan uzviy bog‘liqdir. Qolaversa ta’lim mazmuniga, bilimni egallashga qiziqish maktab o‘quvchilarning o‘z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish hissi bilan uzviy bog‘liqdir. Bu his o‘qituvchining rag‘batlantirishi bilan namoyon bo‘ladi va o‘quvchilarda samaraliroq ishlash mayli, istagi va ehtiyojini shakllantiradi.

O‘quvchilarning ijodiy faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirib borish va ta’lim muassasasini boshqarish tashkiliy tizim sifatida o‘qituvchining metin irodasi, nazariy va amaliy mahorati, soha bo‘yicha egallagan bilimlari, faoliyatda orttirgan tajribasiga bog‘liq.

Ixtisoslashgan va ijod maktablarida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini, qobiliyatini doimiy rivojlantirish uchun o‘quv materiallarini o‘rganish tizimi, har bir fanga, mavzuga oid o‘quv elementlari ajratiladi, o‘quvchilarning o‘z yoshiga mutanosib holda real bilish imkoniyatlari o‘rganiladi. Shu asosda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini, qobiliyatini yanada rivojlantirish xususiyatlari aniqlanib, ta’lim

muassasasi imkoniyatlari, boshqarish mexanizmlari ularni yaratishda, faoliyatini tashkil etishda, boshqarishni, nazorat qilish me'yorlari, texnologiyalari, usullari, vositalari, tamoyillari ishlab chiqiladi.

O'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish va boshqarish ta'limning ijtimoiy, pedagogik maqsadlarga tayangan holda pedagogik jarayonni aks ettiruvchi umumiyl kelajak strategiyasi hisoblanadi. Mazkur jarayon bosqichma-bosqich, tizimli va maqsadli amalga oshiriladi. Yurtimizda bunday ijodkor, ixtidorli o'quvchilarni o'qitishga va tarbiyalashga yo'naltirilgan maktablarda o'quv rejasi, dasturlari, darslik, metodik tavsiyalar va boshqa o'quv qo'llanmalar muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik vaziyatni to'laqonli anglash hamda vazifalarning aniq va to'g'ri belgilanishi pedagogik jarayonni samarali hal etishning muhim sharti hisoblanadi.

Ixtisoslashgan va ijod maktablarni boshqarishda va ijodkor o'quvchilarni tarbiyalashda pedagogik maqsad, pedagogik jarayonni tashkil etishga tayyorlanish bosqichida pedagogik vazifa kutilgan natija sifatida qabul qilinadi. O'qitish jarayonida pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati turli boshqaruv texnologiyalari va vazifalarining mohiyati bilan belgilanadi. Tizimni amalga oshirish jarayoni bir yo'la yoki birin-ketin anglanishiga, qabul qilinishiga bog'liq.

Ma'lumki, pedagogik faoliyat uchun umumiyl bo'lgan vazifalar quyidagilardir. Bunda ixtisoslashgan va ijod maktablarini boshqarish tizimiga alohida urg'u beriladi. Ayniqsa, o'quvchilarning darslardagi faolligi, yangi mavzuni o'zlashtirishiga ajratiladigan vaqt, mavzuni tushunish, mustaqil anglashlariga ko'maklashish, qayta aloqaga chiqish, munosabat bildirish kabilar muhim sanaladi. Asosiy boshqaruv o'qituvchi va ayrim holatlarda o'quvchi faoliyatida aks etadi.

Agar ixtisoslashgan va ijod maktablarida pedagogik vaziyat va boshqaruv jarayoni yetarli darajada to'g'ri tashkil kilinmasa va anglanmasa, u holda pedagogik maqsadlarni va vazifalarni hal etish yo'llari ham to'g'ri belgilanmaydi. Mazkur ta'lim muassasasida kasbiy faoliyatni boshlagan o'qituvchi pedagogik vaziyatni to'g'ri anglashi, maqsad va vazifalarni to'g'ri belgilash malakasiga ega bo'lsagina, faoliyat tizimli rivojlanadi. Ijodkor o'quvchilar bilan ishlash jarayonida har doim ham

o‘qituvchi haq bo‘lavermaydi. Ba’zan ular o‘zlariga ma’qul bo‘lgan yo‘lni tutadilar va pedagogik vazifani darhol hal etmoqchi bo‘ladilar, natijada jiddiy xatoga yo‘l qo‘yiladi. Ammo ayrim holatlarda tajribali pedagoglar ham pedagogik vaziyatni to‘g‘ri anglashga e’tiborsiz qaraydilar. Natijada, pedagogik faoliyatda nomutanosiblik vujudga keladi: pedagog o‘z faoliyatining pedagogik maqsadlarning hal etilishini ta’minlay olish-olmasligini o‘ylab o‘tirmay, o‘quvchilarni faollashtiradi, ko‘rgazmali qurollardan foydalanadi yoki turli kreativ topshiriqlar va metodlar orqali bilimlarni nazorat qiladi. Bizga yaxshi ma’lumki, har bir fan o‘zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e’tirof etilishini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. Abdullaev Yu.N. Xorijda oliv ta’lim: tajriba va taraqqiyot yo‘nalishlari. –T. O‘zbekiston. 1999, - 200 b.
2. Abduraxmanov O.K. Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi. -T.: Fan va texnologiya. 2014. - 23 b.
3. Toshpulatova M.I., A’zamova B.M.. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituv-chilarini o‘quvchilarni matematik tafakkurini rivojlantirishda integ-rativ yondashuv // NamDU ilmiy axb-masi. Namangan. 2019, № 12.- B. 173.
4. Yuldashev M.A. Ta’lim sifati menejmentining tashqi va ichki nazorat mezanizmlari // Ilm ham jamiyat. –Nukus. 2016, - № 1. – B. 88-90.
5. Yakibova D.Sh. Boshlang‘ich ta’limda integratsiya – intellektual taraqqiyot omili sifatida // Zamonaviy ta’lim. 2016, № 11. –B. 73-78.
6. Kamolova, A. O., & Akramjonova, F. A. (2024). PEDAGOGIK FAOLIYAT JARAYONLARIDA INNAVATSION TA’LIM JARAYONLARI ORQALI PEDAGOGLAR SALOMATLIGINI SAQLASH. Экономика и социум, (6-1 (121)), 302-305.
7. Xalimjanovna, A. M. (2024). Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiyaviy faoliyatlarni tashkil etishga zamonaviy yondashuv ta’lim bilan amaliyot integratsiyasi. Science and innovation, 3(Special Issue 31), 451-454.

8. Asranbayeva, M. N. (2024). INKLYUZIV TA'LIM TIZIMIDA IMKONIYAT CHEKLANGAN O'QUVCHILARNI O'QITISHGA LINGVOPEDAGOGIK YONDASHUV. Academic research in educational sciences, 5(CSPU Conference 1), 331-336.
9. Kamolova, A. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasining manbalarini o'rghanishning ilmiy-nazariy asoslari. *Fan va ta'lim" Ilmiy jurnali/Impact Factor*, 3, 590-592.
10. Xayrullayev, M. M. O. G. L., & Kamalova, A. O. Q. (2024). Kimyo fanlarini o'qitishda rolli o'yinlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari. *Science and Education*, 5(11), 187-190.
11. Асрәнбоева, М. Х. ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ РОДИТЕЛЬСКИХ ОТНОШЕНИЙ В СЕМЬЕ НА ОБРАЗОВАНИЕ ДЕТЕЙ. ВЕСТНИК ИНТЕГРАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ,